

O'QUVCHILARNING BIOLOGIYA FANIDAN KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO PISA DASTURINING AHAMIYATI

Usmonova Muhayyoxon Sobirovna

Qo'qon davlat pedagogika insituti

Mo'minova Mubinoxon Mirzamadaminjon qizi

Qo'qon Shahar 1-maktab

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7309450>

Annotatsiya. Ushbu maqolada PISA haqida umumiy tushuncha, PISA dasturining o'quvchilar hayotidagi roli, mavzularga kreativ yondashuv, vizual o'quv materiallariga ma'lumotlar keltirilgan. O'quvchilarning kreativ fikrlashiga ta'sir etuvchi omillar, o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirishda xalqaro PISA dasturining ahamiyati tahlil qilindi.

Tayanch so'zlar: PISA, vizual o'quv, kreativ fikrlash, tabiiy-ilmiy savodxonlik, test, kompetensiya, savodxonlik, xalqaro dastur.

ТЕКСТ НАУЧНОЙ РАБОТЫ НА ТЕМУ «ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПИЗАНСКОЙ ПРОГРАММЫ В РАЗВИТИИ У СТУДЕНТОВ СПОСОБНОСТИ ТВОРЧЕСКИ МЫСЛИТЬ В ОБЛАСТИ БИОЛОГИИ»

Аннотация. В этой статье дается общее представление о PISA, роли PISA в жизни программистов, творческом подходе к темам, а также информация о наглядных обучающих материалах. Проанализированы факторы, влияющие на творческое мышление студентов, значение международной программы PISA в формировании навыков творческого мышления студентов.

Ключевые слова: PISA, визуальное чтение, творческое мышление, научная грамотность, тест, компетентность, грамотность, международная программа.

IMPORTANCE OF INTERNATIONAL PISA PROGRAM IN DEVELOPMENT OF STUDENTS' ABILITY TO THINK CREATIVELY IN BIOLOGY

Abstract. This article provides information on a general understanding of PISA, the role of the PISA program in students' lives, a creative approach to topics, and visual educational materials. Factors affecting students' creative thinking, importance of the international PISA program in forming students' creative thinking skills were analyzed.

Key words: PISA, visual learning, creative thinking, scientific literacy, test, competence, literacy, international program.

KIRISH

PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur hisoblanadi. Bu dastur har 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Ushbu dastur dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. Bu dastur asosidagi baholash tizmi hozirgi kungacha jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018-yillar) tasodifiy tanlov asosida o'tkazilgan va 2009, 2012-yillardagi PISA natijalari o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha yutuqlari quyi pog'nada ekanligi ko'rsatilgan. Keyingi sinovlar 2021-yilda bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.

PISA testlari maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil

qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkaziladi, birinchi marta 2000-yilda o'tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo'nalishiga afzallik berilib, ja'mi testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo'ladi. 2000-yilda ilk bor o'qish savodxonligiga urg'u berilgan.

Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi: Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushinish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetish, shunga ko'ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish bu bo'limning asosiy maqsadidir.

METOD VA METODOLOGIYA

PISAda ilmiy savodxonlik o'quvchilar tomonidan savollar berish, yangi bilimlarni egallash, jarayonga kreativ yondashish, ilmiy hodisalarni dalillar asosida tushintirish hamda xulosalash asosida idindifikatsiya qilinadi va tavsiflanadi .

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bunda kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan eng muhim ko'nikmalardan biridir .

PISA butun dunyodagi 15 yoshli o'quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta'lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi olib keladi.

PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi o'quvchilarda dalillarga asoslangan xulosaga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishga olib keladi. PISA dasturidagi ushbu faoliyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan .

Nickerson kreativ fikrlashni bo'g'uvchi aynan maktab bilan bog'liq bir qator amaliyotlarni mavjudligini e'tirof etadi va ularga quyigalarni kiritadi:

1. vazifani bajarishning yagona to'g'ri usuli, savolga yagona to'g'ri javob bo'lishi kerak, degan g'oyaning mavjudligi;
2. nufuzli insonlarga bo'ysunish va ulardan qo'rqish kerak, degan munosabatni targ'ib etish;
3. har qanday holatda ham dars rejasiga amal qilish;
4. originallik o'ta noyob xislat ekanligiga ishonib qolish;
5. bilim alohida sohalarga bo'linishi haqidagi ishonchni targ'ib etish;
6. qiziquvchanlik va sinchkovlikni ma'qullamaslik;
7. bilim olish va muammoni yechishning qiziqarli mashg'ulot bo'lishiga yo'l qo'yimaslik .

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Demak, pedagog ustozlar ham o'quvchilarning kreativ fikrlashiga to'sqinlik qilishi mumkin. Buning uchun pedagoglar dars jarayonida yuqorida keltirilgan kreativ fikrlashni bo'g'uvchi omillardan voz kechishi lozim.

PISA tadqiqotida kreativ fikrlash yordamchi omillarining murakkab turkumi borasida ma'lumot yig'ish qiyin, lekin amalga oshirsa bo'ladigan ishdir. PISA ikki qismdan iborat: test va so'rovnoma. Test qismi o'quvchilar g'oya berish, uni tahlil etish va takomillashtirish asosida ma'lumot beradi. So'rovnoma ushbu ma'lumotni o'quvchi kreativ fikrlashining boshqa yordamchi omillari borasidagi ma'lumot bilan, jumladan, ijodiy yondashuv (ochiqlik, maqsad sari ishtiyoq va ishonch), maktab muhiti haqidagi tasavvurlari, maktab va uning tashqarisida shug'ullanadigan faoliyat kabi ma'lumotlar bilan to'ldiradi [8].

Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligini aniqlash PISA dasturini bitta bo'limi bo'lib, bunda hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasiga ega ekanligi o'rganiladi. Bu bo'limning asosiy maqsadi atrofimizdagi olamni tushinish, inson faoliyati natijasida unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetish, shunga ko'ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish hamda biologik hodisalarga kreativ yondashishdan iborat [1].

Tabiiy-ilmiy savodxonligini aniqlashda birinchi navbatda PISA tizmiga asoslangan o'quv materiallarini ishlab chiqish va ularni o'quvchilarga tadbiq qilish kerak. Tadbiq qilingan o'quv materiallari sinfda o'quv jarayonini yaxshilashga va o'quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Buning uchun o'quv materiallari ko'proq amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki amaliy mashg'ulotlar o'quvchilar bilimini boyitishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga va kreativ fikrlashga olib keladi [5].

XULOSA

Gretsiya maktablarida 7- va 9- sinf o'quvchilarining biologiya fanidan bilimni baholashda vizual o'quv materiallaridan foydalaniladi va uning quyidagi hususiyatlari tahlil qilinadi.

- vizual o'quv materiallarini PISA va o'quv qo'llanmalarga kiritish chastotasi;
- vizual o'quv materiallarining turlari (rasm, diagramma, jadval va boshqalar);
- o'quvchi egallashi kerak bo'lgan bilimlarni aniqlashda vizual tasvirlar aniq roli;
- vizual o'quv materiallarida ma'lumotlar keng doirada tahlil qilishini;
- talab qilinadigan javoblar formati (grafik tahlil qilish, jadvallarni to'ldirish,
- vizual ko'rsatmalarni bajarish, raqamli javoblar) [1].

Shunday qilib, tabiiy ilmiy savodxonlikni oshirishda biologiya fanidan PISA dasturiga oid o'quv materiallarni ishlab chiqish va dars jarayoniga qo'llash, o'quvchilarning bilimni boyitishga, egallagan bilimlarini o'z hayotida qo'llashga hamda biologik jarayonlarga kreativ yondashishga olib keladi.

REFERENCES

1. Kyriaki Anagnostopoulou, Vassilia Hatzinikita, Vasilisa Christidou. PISA and biology school textbooks: the role of visual material // *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 46 (2012) 1839 – 1845
2. Rakhmatullaeva, D. S. (2020). VALENCE LEXEM WITH THE SEMEME" SCIENCE AND EDUCATION" IN THE UZBEK LANGUAGE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(8), 210-215.[https://bookshop. canterbury. ac.uk/](https://bookshop.canterbury.ac.uk/)
3. Teaching-CreativeThinking-Developinglearners-who-generate-ideas-and-thinkcritically (accessed on 26 March 2018).

4. Мадрахимов, И. (2002). К вопросу о составе лексем узбекского языка. *Узбекский язык и литература*, (4), 29-32.
5. Sobirovich, M. I. (2022). Results of Consistent Classification of Lexemes. *Middle European Scientific Bulletin*, 24, 325-328.
6. Базаров, О., & Мадрахимов, И. (2016). ЧЕЛОВЕК-ТВОРЕЦ СВОЕГО РОДНОГО ЯЗЫКА.
7. Mirsaydalievich, Y. I. (2022). SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF ECOLOGICAL EDUCATION OF SCHOOLCHILDREN. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 102-106.
8. Yusupov, I. (2021, August). METHODS OF DETERMINING THE MINERALIZATION OF THE SOIL: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1393>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
9. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI, O. V. O. (2021). RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI Yusupov Ibragim Mirsaydalievich UMUMIY MIKROBIOLOGIYA 5110400-Biologiya o'qitish metodikasi DARSLIK Toshkent-2020 138-139 betlar. Мувофиқлаштирувчи кенгашнинг ўқув-услубий бирлашма ва комиссиялари томонидан ижобий хулоса берилган. Ўз Р. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг.
10. Равшанова, И. Э., & Шерматова, Ё. С. (2020). ТАЛАБАЛАРНИНГ ПСИХОЛОГИК САЛОМАТЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ АСОСИЙ МЕЗОНЛАРИ. *Интернаука*, (3-2), 87-89.
11. Sharipova, O. A. (2021). The Role of National Values in the Family in Child Education. *International Journal on Orange Technologies*, 3(4), 238-240.